

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 8 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами бериледи.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Воҳидова Комила Абдуллозизовна*
“ЭЛ БАЙРОҒИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА 11-17
- Сулайманов Саламат Арепбаевич*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО
ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) 18-24
- Раунов Холмамат*
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ 25-32
- Мажидов Анвар Сиражович*
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ
ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ
МИСОЛИДА) 33-40
- Begatova Nasiba Xolmurzayevna*
FERMER XO‘JALIKLARI VA KLASSTER TIZIMI UCHUN O‘RTA MA‘LUMOTLI MUTAXASSISLARNI
TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI
MISOLIDA) 41-48
- Алланазаров Мурот Мирзаевич*
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР
ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА 49-54
- Ismoilova Feruza Ibragimovna*
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI
XIZMATLARI 55-59
- Tursunov Xurshid Nasriddinovich*
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI 60-64

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Yuldosheva Gulnoza Abdinabiyevna*
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF
ENTERPRISES 65-70
- Oromidinov Muzaffar Pardabayevich*
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS 71-75
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҒИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 76-84

| | |
|---|---------|
| <i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR | 85-92 |
| <i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i> MINTAQADA XIZMAT TURLARIDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI | 93-98 |
| <i>Turobov Sherzod Alisherovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI | 99-105 |
| <i>Шамсиев Нодир Муратович</i> МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ | 106-110 |
| <i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i> AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI | 111-114 |
| <i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ | 115-121 |
| <i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI | 122-127 |
| <i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i> МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ | 128-137 |
| <i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Ғаффор Аллақулович</i> ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ | 138-150 |
| <i>Мамадиёров Олимжон Умарович</i> ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ..... | 151-158 |
| <i>Раббимов Жахонгир Эшбоевич</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ | 159-164 |
| <i>Кулибоев Азамат Шоназарович</i> ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ | 165-174 |

Гадоев Сўҳроб Жумакулович
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ
ЙЎЛЛАРИ 175-181

Бекжанов Дилмурод Йўлдашович
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН
МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ 182-193

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Boydadayev Abdurroхтон Tolibjon o'g'li
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY
TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) 194-200

Xayridinov Abbosxon Anvarovich
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLISHDA
MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI 201-205

Quramboyev Alisher Maxsudovich
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI 206-211

Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR
MAQSADI..... 212-217

Turabova Sevara Kattaqulovna
ILMIY VAHS FENOMENINING MANTIQUIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA
KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV 218-224

Пардаева Марҳабо Давлатовна
АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ
ҲОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ 225-233

Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich
NIKON MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI 234-240

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR 241-246

Юсупова Феруза Зойировна
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИНING МЕЗОНИ 247-251

Teshaboev Muhiddin Marifovich
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI 252-257

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Soatova Nodira Isomitdinovna

LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI 258-265

Narmuratov Zayniddin Radjabovich

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA 266-269

Yusupova Omina Muhammadzoir kizi

DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE 270-276

Бозорова Хулкар Одинакуловна

РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ 277-282

Matyakubov Oybek Quralbayevich

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI 283-288

Фатуллаева Камола Рахматуллаевна

ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ 289-293

Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna

O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI 294-299

Xamzayev Otaxon Erkinovich

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA Tahlili 300-305

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Абдурахманова Нодирахон

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ 306-310

Сафоева Садокат Мусоевна

ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА 311-320

Абдуллаева Маликабону Эркин қизи

ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ 321-330

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Zoirova Lola Xamidovna

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "INSON ORGANIZMINING RADIATSIYAGA SEZGIRLIGI" MAVZUSINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

| | |
|---|---------|
| FOYDALANISH | 331-336 |
| <i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA) | 337-343 |
| <i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i> YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH | 344-349 |
| <i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i> ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS | 350-355 |
| <i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджоновна</i> ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ.. | 356-361 |
| <i>Islomova Madina Asqarovna</i> INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH | 362-368 |
| <i>Raxmatova Mexrinov Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI | 369-373 |
| <i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i> ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ | 374-384 |
| <i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i> KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR | 385-390 |
| <i>Borasheva Aybolgan</i> EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING | 391-398 |
| <i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHA SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQUIY TAHLILI | 399-409 |
| <i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i> MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR | 410-414 |
| <i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i> XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI | 415-421 |

| | |
|---|---------|
| <i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i> METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS | 422-427 |
| <i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO‘GARAKLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI | 428-433 |
| <i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i> DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD | 434-441 |
| <i>G‘ofurov Azizbek Umarjonovich</i> BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH | 442-447 |
| <i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i> BO‘LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI | 448-454 |
| <i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i> INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR | 455-460 |
| <i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i> PROFESSINAL TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O‘QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH | 461-469 |

13.00.00- Педагогика фанлари

Ibragimov A'lamjon Amrilloevich
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi
metodikalarga o'rgatish milliy markazi
direktori, pedagogika fanlari doktori dotsent
aibragimov74@mail.ru

**KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB
PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA)**

Annotatsiya. Zamonaviy dunyoda inson ongi, tafakkur jarayonlari, miya faoliyatining kishi shaxsiyati va kasbiy rivojlanishidagi tengsiz imkoniyatlarni yuzaga chiqarishi kognitiv tadqiqot obyekti sifatida o'rganilayotgani, hamda bu borada, ancha ilgari ketilgan ma'lum. Maqolada kognitiv pedagogikaning muhim jihati – shaxs kognitiv sifatlarining o'z-o'zini namoyon va rivojlantirishdagi ijobiy ta'siri ochiqdangan.

Kalit so'zlar: intellekt, mahorat, mobillik, egiluvchanlik, vizuallashtirish, malaka oshirish.

Ibragimov Alamjon Amrilloevich
The director of the Samarkand region national
center for training pedagogues in new methods,
Doctor of Pedagogical Sciences, Associate professor

**IMPACT OF COGNITIVE QUALITIES ON CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT (IN
THE CASE OF SCHOOL PEDAGOGUES)**

Abstract. In the modern world, it is known that the human mind, thought processes, and brain activity, which reveal unparalleled opportunities in human personality and professional development, are studied as an object of cognitive research, and in this regard, much progress has been made. The article reveals an important aspect of cognitive pedagogy - the positive effect of cognitive qualities of a person on self-expression and development.

Keywords: intelligence, skill, mobility, flexibility, visualization, skill development.

Ибрагимов Аъламжон Амриллоевич
Директор Национальный центр обучения педагогов
новым методикам Самаркандской области,
доктор педагогических наук, доцент

**ВЛИЯНИЕ КОГНИТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ К НЕПРЕРЫВНОМУ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОМУ РАЗВИТИЮ (НА ПРИМЕРЕ ПЕДАГОГОВ
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ)**

Аннотация. Известно, что в современном мире мыслительные процессы человеческого разума достиг больших успехов как объект когнитивных исследований, раскрывающих уникальные возможности мозговой деятельности в личностном и профессиональном развитии человека. В данной

статья раскрывается важный аспект когнитивной педагогики – положительное влияние когнитивных качеств личности на самовыражение и развитие.


Ключевые слова: интеллект, мастерство, мобильность, визуализация, повышение квалификации.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N48>

Kirish. Ta’lim sifati va pedagog xodimlar kasbiy mahoratiga qo’yiladigan talablarning to’xtovsiz oshib borayotganligi o’qituvchining o’z faoliyatini yangicha yondashuvlar asosida tashkillashtirishi lozimligini taqozo qiladi. Chunki zamonaviy o’qituvchi nafaqat o’zining kasbiy mahorati yoki yuqori malaka darajasi, balki intellekti, innovatsion jarayonlardagi faol ishtiroki, mehnat faoliyati samaradorligi hamda natijalarini loyihalay olishi, vaziyatlarni to’g’ri baholashi, kirishimlili, o’z ishiga tanqidiy, ijodiy yondashishi, tashqi ta’sirlarga bardoshlili, axborotlarni tezkor topishi, qayta ishlash, harakatchan va tashabbuskor bo’lishi bilangina ta’lim muhitida raqobatbardoshligini saqlab qoladi.

Mazkur talablar o’qituvchidan uzluksiz ravishda o’qish, bilimlarini rivojlantirish, o’zgarishlarga, kutilmagan vaziyatlarga tezkor moslashish, jo’yali qarorlar qabul qilish, alternativ yondashuvlarni taklif etish, yangi g’oyalar ishlab chiqish, kasbiy o’sish nuqtalarini aniqlay olish, boshqarish, o’z mavqeini yaratish, missiyasini rostdash, intellektual qobiliyatlarini samarali qo’llash, o’zaro ta’sirga kirishish, doimiy faol bo’lish hamda o’quv axborotini vizuallashtirish va mantiqiy izchilligini ta’minlash kabi kognitiv sifatlarga ega bo’lish zaruriyatini belgilaydi. Quyida tadqiqotimiz predmeti nuqtayi nazaridan mazkur sifatlarni turkumlashtirgan holda tavsifini keltiramiz (1-rasm).

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Dastlab o’qituvchining kognitiv mobilligini ifodalovchi sifatlarga to’xtalamiz. Lug’atlarga murojaat qilinganda, “mobbilik” atamasi “harakatchan, qo’zg’aluvchan” [1; 605-b.], “harakatchan, tezkor harakatga, qo’zg’alishga layoqatli” [4; 496-b.], “hissiy holatlarning almashishi, tafakkur tezligining namoyishi, yengil va tez-tez o’zgaruvchan, bir joydan ikkinchi joyga tezkor ko’chishga layoqatli bo’lish” [6; 629-b.] kabi ma’nolarni anglatishi kuzatildi.



1-rasm. O’qituvchining kognitiv sifatlari tuzilmasi

O’z-o’zini doimiy rivojlantirish, o’zgarishlarga, yangi yoki kutilmagan vaziyatlarga tezkor munosabat bildirish va moslashish qobiliyatiga ega o’qituvchiga nisbatan mobil tushunchasini qo’llashimiz mumkin. Shunday pedagoggina o’zining bosh g’oyasini to’la anglaydi, o’qituvchilik faoliyati bilan shug’ullanayotganligini ongli ravishda tahlil qiladi,

tushunadi, kasbiy faollikni namoyish qiladi va amaliy harakatlarga kirishuvchan bo'ladi. Demak, mobillikni faqatgina shaxsning jismoniy harakatchanlikka bo'lgan qobiliyati emas, balki uning psixologik xususiyatlari, kognitiv va hissiy jarayonlarining harakatchanligi sifatida ham anglashimiz mumkin.

Mobillik tushunchasi dastlab o'tgan asrning boshlarida amerikalik sotsiolog olim Pitirim A.Sorokin tadqiqotlarida uchraydi. Uning fikricha, mobillik "insonning yoki ijtimoiy obyektning ma'lum bir ijtimoiy vaziyatdan boshqasiga ko'chishi"ni ifodalaydi [9]. Tadqiqotchi individual yoki guruhli ijtimoiy mobillikni o'rganish asnosida ularni vertikal va gorizontal turlarga ajratadi hamda mazkur tushunchaning ilmiy atama sifatida vujudga kelishini dunyo miqyosida inson maqomining o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarni ifodalash zaruriyati bilan izohlaydi.

Butunjahon iqtisodiy forumi (WEF) keng ko'lamli tahlillarga tayanib, XXI asrda shaxs kamolotini belgilovchi zaruriy ko'nikmalarni bashorat qilar ekan, navbatdagi sifat o'zgarishi *kognitiv egiluvchanlikni* ish joyida muvaffaqiyatga erishish uchun asosiylaridan biri sifatida ko'rsatadi [10].

Kognitiv egiluvchanlik atamasining turli talqinlari tahlili mazkur nazariya asoschisi R.Spironing ta'rifi aniq va muvaffaqiyatli ekanligini e'tirof etish imkonini berdi. Tadqiqotchi kognitiv egiluvchanlikni "keskin o'zgaruvchan vaziyat talablariga mos ravishda o'z bilimlarini turli munosabatlarda qo'qqisdan qayta tuzish qobiliyati" sifatida ifodalaydi hamda bilim olishning asosiy funksiyalaridan biri, deb uqtiradi [8]. Kognitiv egiluvchanlik nazariyasi o'qitish aniq bo'lishini, bilimlarni loyihalash va o'quvchilarga axborotlar haqida shaxsiy tasavvurlarini kengaytirishga imkoniyat yaratilishi lozimligiga urg'u beradi.

Ta'limning uzluksiz taraqqiy etib borishi uning falsafasi, paradigmalari, qadriyatlarining o'zgarishini va o'qitish texnologiyalariga bo'lgan noan'anaviy munosabatlarni taqozo qilar ekan, bu jarayonning asosiy ishtirokchisi bo'lgan pedagogning ham kognitiv egiluvchanligi tobora muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, mazkur o'zgarishlar har bir o'qituvchida o'zining kompetentligi, kreativligi, mustaqilligini rivojlantirish, ta'lim innovatsiyalarini tahlil qilgan holda, o'z faoliyatiga tatbiq etish, shuningdek, kasbiy tayyorgarligini uzluksiz oshirib borishi uchun mavjud sharoitlarga tez moslashishini ustuvorlik sifatida belgilaydi.

Kognitiv egiluvchanlik o'qituvchining turli pedagogik vaziyatlarda o'zining bilimi, tajribasi, intellektual qobiliyatlarini samarali qo'llash hamda faoliyatiga doir qo'yilgan maqsadiga erishish uchun o'zini to'liq safarbar qilishni nazarda tutadi. J.Braun va Ye.Langer [5; 139-b.] ta'rifida kognitiv egiluvchanlik individning shaxsiy tajribasiga xilma-xil ma'no baxsh etishi hamda atrof-muhit bilan ko'p tomonlama aloqaga kirishish qobiliyati shaklida ifodalanadi. D.Zavalishina [2] esa egiluvchanlikni o'z kasbining ustasi bo'lgan shaxsning fundamental xususiyati sifatida baholaydi.

Shuningdek, mavjud sharoitlarda axborotlar hajmining to'xtovsiz ortib borayotganligi, yangi bilim, ko'nikma va malakalarga ehtiyojning shiddat bilan arifmetik progressiya kabi oshayotganligi har bir pedagog xodimda o'z faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishi uchun hayot davomida uzluksiz o'qishi lozimligini ifodalaydi. Aynan, shu holat, zamonaviy axborot maydonlarida o'zaro aloqaga kirishish va tushunarli, mazmunli, portativ, yorqin taqdimot qilish uchun *kognitiv vizuallashtirishni* muhim tamoyil sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Mualliflar ta'lim jarayonida kommunikatsiyalarning vizual vositalari muhimligini anglash va ularni kuchaytirish alohida ahamiyatga ega ekanligini bot-bot ta'kidlaydilar. Chunki o'quv axborotini taqdim qilishning turli usullarini uyg'unlashtirish uni nafaqat uzatish, balki

idroklashning ham kognitiv stillarini rag'batlantiradi [7; 161]. Vizual axborot miyaning o'ng yarim shari bilan qayta ishlanishi hamda verbal axborot bilan o'zaro ta'sirga kirishib yarim sharlar orasidagi aloqadorlikni, shu bilan birga, miyaning "mutanosibligini" rivojlantiradi. Bu holatni ta'lim jarayonida, albatta, inobatga olish va undan to'g'ri foydalanish zarur. Chunki mazkur hodisa hozirgi davr o'quvchilarining ta'limga bo'lgan formal yondashuvlarni qabul qilmasliklarining jiddiy sabablaridan biri sifatida tushuntirilishi mumkin [3].

Natijalar va muhokama. O'qituvchining kasbiy mobilligi uning faoliyati mazmunini o'zgarishiga tezkor moslashish imkoniyatini yaratadi. Ya'ni, kasbiy mobillik o'qituvchi shaxsining ma'lum qobiliyatinigina emas, balki faoliyatini tashkillashtirish, rivojlantirish, egiluvchan tafakkurga ega bo'lish, yangiliklarni qabul qilish va ularni jarayonga samarali singdirishning uyg'unligini ifodalaydi.

Mazkur tuzilmada kognitiv tarkib kasbiy mobillikning asosini tashkil qiluvchi mustaqil bloklardan tashkil topadi (1-jadval).

1-jadval.

Kasbiy mobillikning kognitiv tarkibi

| "o'zgarishlarga tayyorlik" | "faollik" |
|--|---|
| <ul style="list-style-type: none"> - o'zgarishga xohish; - shaxsiy hayoti yoki faoliyatida ahamiyatga molik o'zgarishlar kiritishga tayyorlik; - kreativlik; - tezkor qarorlar qabul qilish; - ko'p o'qishga layoqat; - atrof-muhitni kuzatish hamda to'g'ri baholash ko'nikmasi va b. | <ul style="list-style-type: none"> - notanish kasbiy sharoitlarga moslashish va o'zgartira olish qobiliyati; - erishiladigan maqsadlarni mustaqil qo'yish va amalga oshirish qobiliyati; - turli xil ijtimoiy aloqalarga kirishish va o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish ko'nikmasi; - natijalarni oldindan ko'rish hamda intensiv faoliyatni tartibga solish va b. |

O'qituvchining kognitiv mobilligi murakkab tuzilmaga ega bo'lib, yetarlicha hajm va turlicha yondashuvlarni o'zida aks ettiradi. O'rganilgan tadqiqot ishlari hamda shaxsiy kuzatuvlarimiz negizida *o'qituvchining kognitiv mobilligi* deganda, uning faoliyatiga doir o'zgaruvchan sharoitlarda o'z-o'zini rivojlantirish, muayyan pedagogik vaziyatlarda tezkor yechim topish, kasbiy ehtiyojlarini anglash hamda zamonaviy talablarga moslashtirishga tayyorligi va qobiliyatini ifodalaydigan integrativ xususiyatini tushunamiz.

Kognitiv egiluvchanlik. Bizningcha, o'qituvchi yuqori professional darajada faoliyat yuritishi uchun doimiy ravishda bilimlarini rivojlantirishi va ixtiyoriy vaziyatlarda ulardan samarali foydalana olishi uning kognitiv egiluvchanlik darajasini ko'rsatadi.

Pedagogning kognitiv egiluvchanlik darajasi unda quyidagi ko'nikmalarning rivojlantirilishi muhimligini bildiradi:

- o'zgarishlarga, yangi yoki kutilmagan vaziyatlarga tezkor moslashish;
- hamkasblar yoki o'quvchilar bilan umumiy fikrga kela olish hamda samarali o'zaro ta'sirga kirishish;
- muammoli vaziyatlarni avvaldan ko'rish, hal qilish, alternativ yondashuvlarni taklif etish, kommunikativ qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish;
- uzluksiz kasbiy rivojlanish trayektoriyasini mustaqil qura olish;

- faoliyatini idrok negizida tahlillash, zarur hollarda o'zgartirishlarni og'riqsiz kiritish va boshqalarning nuqtai nazarini qabul qilish;
- o'z oldiga jiddiy maqsadlar qo'yish, ularga erishish, o'ziga va atrofida qilargalarga motivatsiya bera olish;
- hissiy yoki intellektual zo'riqishlarni baholay olish va ularga doimiy tayyorlik;
- ijodkorlik, ijobiy yo'nalganlik, yangi g'oyalar ishlab chiqish, amalga oshirish va boshqalarni ishontirish.

Shu o'rinda kognitiv egiluvchanlikni rivojlantirishning asosiy tamoyili hayot davomida o'qish ekanligini yodda tutish zarur. Chunki bu tamoyil:

“Mening pedagogik missiyam nimadan iborat?”

“Men yana nimalarni bilmayman yoki bilishim zarur?”

“Hayotimda yoki faoliyatimda yana qanday bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishim kerak?”

“Men o'zimni qanday rivojlantiraman va namoyon qilaman?”

“Uzluksiz kasbiy rivojlanishim nimani ifodalaydi?” kabi savollarga javob berish imkonini beradi. Ya'ni, pedagog faqatgina yangi bilimlarni uzluksiz ravishda egallash orqaligina kognitiv egiluvchanlik holatida qolishi, samarali qarorlar qabul qilishi va o'z professionalizmini rivojlantirishi mumkin.

Pedagogning kognitiv egiluvchanligi zaruriyatini bir misolda ko'rib chiqamiz. Butun dunyoga xavf solib turgan pandemiya sharoitida ta'lim sohasi o'zining an'anaviy o'qitish tizimiga o'zgartirishlar kiritishga majbur bo'ldi. Ta'limning mamlakatimizda yetarlicha rivojlanmagan elektron o'qitish, onlayn o'qitish va teleo'qitish shakllariga murojaat etilishi nafaqat tegishli shart-sharoitlar yaratish, balki tizimda faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning ham axborot kommunikasiya texnologiyalari bilan ishlashga doir bilim va ko'nikmalarining tezda rostdlash zarurligini ko'rsatdi.

Afsuski, malaka oshirish kurslari tinglovchilari bilan o'tkazilgan so'rovnomalar hamda kuzatishlarimizda umumta'lim maktablari o'qituvchilarining bu sohada yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega emasliklari aniqlandi. Misol uchun, tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan 653 nafar tinglovchilarning 67 %i elektron o'qitish haqida tasavvurga ega. Shuningdek, elektron o'qitish bo'yicha dasturiy tizimlar haqida 35 %, ochiq va yopiq tarmoqlar haqida 61 %, kontent yaratish va uni joylashtirish haqida 21 %, o'quv muhitini interaktiv qo'llab-quvvatlovchi tizimlar haqida 27 % tinglovchilar tegishli bilimlarga ega ekanliklari aniqlandi. Lekin shu o'rinda bir holatga e'tibor qaratish kerak. So'rovnomada ishtirok etgan tinglovchilar bilan o'tkazilgan suhbat natijalaridan aniqlandiki, ular o'z bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz oshirib borishga ehtiyojlari borligini anglaydilar va ijobiy munosabatda bo'ladilar. Bu esa ularda aynan kognitiv egiluvchanlikka moyillik mavjudligini ko'rsatadi. Tajriba-sinov ishtirokchilari bilan o'tkazilgan treninglar va qisqa muddatli kurslar yakunlari ham bu farazimizni isbotladi hamda ularda yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarning ijobiy dinamikasi kuzatildi.

O'qituvchida kognitiv egiluvchanlik darajasining past bo'lishi ish jarayonida qiyinchiliklarning yuzaga kelishi, shuningdek, faoliyat samaradorligi, innovatsiyalarni qabul qilish va o'quvchilar bilan o'zaro aloqalarda murakkabliklar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu holat o'quvchilarning barkamol, mustaqil, tanqidiy tafakkurli, raqobatbardosh bo'lib

shakllanishiga to'sqinlik ko'rsatish bilan birgalikda o'qituvchida inertlik, rigidlik, konservativlik, kasbiy rivojlanishda qotib qolish va inqirozni olib keladi.

Kognitiv vizuallashtirish bilish jarayonini faollashtirish orqali o'quv axboroti bilan ishlash samaradorligiga erishishni ta'minlaydi. Kognitiv vizuallashtirish malaka oshirish sohasining kattalar ta'limi sifatidagi o'quv jarayonini maqbullashtirish, to'g'ri va qayta aloqani ta'minlash, refleksiya kabi pedagogik vazifalarining yechimini ifodalaydi. Jarayonning idrok, anglash va eslab qolish kabi psixologik holatlar bilan bog'liqligi vizuallashtirishning quyidagi afzalliklarini ko'rsatadi:

- o'quv axborotini mumkin qadar to'liq tushunish va to'g'ri tahlillash;
- javoblarning mantiqiy izchilligini ta'minlash;
- tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish;
- katta hajmli axborotlarni oson tushunish va yangi bilimlarni uyg'unlashtirish;
- o'quv materialini yaxlit, qiziqarli, tushunarli yetkazish va b.

Tadqiqotimiz obyekti sifatida o'qituvchilarda o'quv materialini kognitiv vizuallashtirish darajasi o'rganildi. Tajriba-sinov ishlari davomida o'tkazilgan so'rovnomalarda tinglovchilar o'quv axborotini vizuallashtirish orqali yetkazishni ijobiy holat sifatida baholadilar hamda dars maqsadiga erishishning samarali vositasi ekanligini e'tirof etdilar. Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan 653 nafar tinglovchilarning 69,5 foizi vizuallashtirish o'quv axborotini to'liq tushunish, tahlillash va samaradorlikka erishishni ta'minlaydi, 23,7 foizi ta'minlansa kerak, deb javob berdilar. Qolgan ishtirokchilar, 3 foiz va 1,4 foizi mos ravishda ta'minlamasa kerak hamda aniq ta'minlamaydi, deb hisoblasalar, yana 2,4 foiz ishtirokchilar esa javob berishga qiynaldilar. Lekin, ishtirokchilar kognitiv vizuallashtirishning qaysi shakl va metodlaridan foydalanasiz, degan savolga javob berishda qiynalib qoldilar. Bu holat esa malaka oshirish kurslarida vizuallashtirishning samarali metodlari, shakl, vositalari haqida yetarlicha axborot berish birgalikda pedagoglarda, aynan, shu ko'nikmalarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Malaka oshirish kurslarida o'quv axboroti taqdimotida vizuallashtirishning turli vositalarni qo'llash tinglovchilarning bilish faoliyatini sezilarli darajada faollashtirish, ularda motivatsiyani ko'tarish, yangi bilimlarni oson o'zlashtirish va mustaqil ta'limini rivojlantirish, shuningdek, kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlashga imkon beradi. Demak, nafaqat kurslarni tashkil qilishda, balki sohaga doir o'quv adabiyotlarini yaratishda ham kognitiv vizuallashtirish elementlarini kiritish kutilgan natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Xulosa. Umuman olganda, o'qituvchining kognitiv sifatlarini rivojlantirish pedagogik voqelikning hozirgi sur'atida dolzarb ahamiyat kasb etishi, natijaga yo'naltirilgan tadqiqotlar o'tkazilishi va ta'lim amaliyotiga tezkor singdirilishi zarurligini ta'kidlamoqchimiz. Ishonch bilan aytish mumkinki, kognitiv sifatlar o'qituvchiga ta'lim muhitining aniq sharoitlari bilan tizimni tartiblashtiruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda o'quv dasturlari orasidagi nomuvofiqliklar ta'sirini mumkin qadar yumshatish, o'quvchilarga individual yondashuvni hosil qilish, obrazli tasavvurni kengaytirish, kutilmagan holatlar, tezkor o'zgarishlarga ortiqcha kuch sarfisi moslashish, kasbiy rivojlanishi uchun o'sish nuqtalarini belgilash imkonini beradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild / Tahrir hay'ati: T.Mirzayev va b.; O'zR FA Til va adabiyot instituti. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b.

2. Завалишина Д.Н. Практическое мышление: специфика и проблемы развития. – М.: Изд-во “Институт психологии РАН”, 2005. – 376 с.
3. Катханова Ю.Ф., Корзинова Е.И., Игнатъев С.Е. Визуализация учебной информации как педагогическая проблема // Вестник АГУ. – 2018. – № 4 (228). – С. 51-59.
4. Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. – М.: “Эксмо”, 2006. – 944 с.
5. Тодышева Т.Ю. Взаимосвязь гибкости личности и самооценки личности // Вестник Красноярского государственного педагогического университета им. В.П.Астафьева. Актуальные проблемы науки. Психология. – 2013. – № 4 (58). – С. 138-142.
6. Толковый словарь английского языка / Под ред. А.Хорнби. – М.: Сигма пресс, 1995. – 850 с.
7. Bolter D. Exploring and changing the world of the media // Humanistic perspectives in the technological world. Georgia: Georgia Institute of Technology. – 2014. – P. 211-215.
8. Cognitive Flexibility Theory (Spiro, Feltovitch & Coulson). – URL: <https://www.instructionaldesign.org/theories/cognitive-flexibility/>.
9. Sorokin P.A. Social and Cultural Mobility. The free Press of Glencoe, Illinois. – 654 p. – URL: <https://archive.org/details/in.ernet.dli.2015.275737>.
10. This is the indispensable skill that will future-proof your career. – URL: <https://www.fastcompany.com/90516784/this-is-the-indispensable-skill-that-will-future-proof-your-career>.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).